

11-sinf adabiyot. 2-BSB (50 ball)

Insho

Insho yozish uchun mavzular:

1. “Qisasi Rabg‘uziy” – o‘zbek nasrining ilk namunasi”.
2. “Saddi Iskandariy” – dostonining tarbiyaviy ahamiyati”.

Insho yozish uchun tavsiyalar:

1. Qiziqishlaringiz asosida yuqoridagi mavzulardan birini tanlang.
2. Tanlagan mavzuingizni chuqur o‘rganib chiqing.
3. O‘ylaringizdagi fikrlarni tartiblang (masalan, qaysi fikrimni oldin, qaysi birini oldingi fikrimdan keyin joylashtiraman... kabi).
4. Fikrlaringizni dalillash uchun ko‘chirmalar yig‘ing.
5. Tanlagan mavzuingiz asosida puxta reja tuzing.
6. Tezis (qisqa ifoda) yozib oling.
7. Yozganlaringizni tahrirlang.
8. Oqqa ko‘chiring.
9. Qayta tahrirlang.
10. Taqdim eting.

Baholash mezonlari (50 ball)

Savodxonlik (20 ball)		1 ta	2 – 4 ta	3 – 4 ta	5 – 7 ta	
1. Imlo xatolari	10 ball	10 – 9 ball	8 – 7 ball	6 – 4 ball	3 – 1 ball	
2. Tinish belgilari	5 ball	5 ball	4 ball	3 – 2 ball	1 ball	
3. Husnixat	5 ball					
matn aniq, ravon, tushunarli hamda husnixat qoidalariga rioya qilingan holda yozilgan bo‘lsa –	5 – 4 ball					

husnixat biroz noaniq, harflar qiyshaygan, ravon o'qish biroz qiyin bo'lsa –	3 ball					
husnixat noaniq, harflar qiyshaygan, ravon o'qish qiyin, shuningdek, harflar bo'yalgan bo'lsa –	2 – 1 ball					
Insho mazmuni va xulosa (30 ball)						
Inshoni tavsiyalar asosida, to'g'ri ketma-ketlikda yozgan, fikrlarini tartib bilan ifoda etgan, mavzuga mos reja tuza olgan, qarashlarini asoslab bergan, matnni tahrirlagan, shuningdek, ishni o'z fikr-mulohazalari asosida boyitgan, g'azallarning bugungi kundagi ahamiyatiga to'xtalgan hamda zamon bilan bog'lay olgan, xulosalarini aniq bayon qila olgan, imlo, tinish belgilari va husnixat talablariga amal qilgan holda yozgan bo'lsa –	25 – 30 ball					
Inshoni tavsiyalar asosida, to'g'ri ketma-ketlikda yozgan, fikrlar tartibida biroz chalkashliklar kuzatilgan, ammo har bir fikr asoslangan, mavzuga mos reja tuza olgan, qarashlarini asoslab bergan, matnni tahrirlagan, ishda o'z fikr-mulohazalari to'liq aks etmagan, g'azallarning bugungi kundagi ahamiyatiga to'xtalgan hamda zamon bilan bog'lay olgan, xulosalarini bayon qila olgan, imlo, tinish belgilari va husnixat talablariga amal qilgan holda yozgan bo'lsa –	19 – 24 ball					
Inshoni yozish mobaynida tavsiyalardan to'liq foydalanmagan, shu sabab fikrlar tartibida biroz chalkashliklar reja mavzuni to'liq ochib bera olmagan, o'z qarashlarini qisman asoslab bergan, matnni tahrirlagan, ishda o'z fikr-mulohazalari to'liq aks etmagan, g'azallarning bugungi kundagi ahamiyatiga to'xtalgan, ammo zamon bilan bog'lay olmagan, xulosalarini bayon qila olgan, imlo, tinish belgilari va husnixat talablariga to'liq rioya qilmagan bo'lsa –	10 – 18 ball					

Inshoni yozish mobaynida tavsiyalardan to‘liq foydalanmagan, shu sabab fikrlar tartibida biroz chalkashliklar kuzatilgan, reja mavzuni to‘liq ochib bera olmagan, o‘z qarashlarining ayrimlari asoslangan, ayrimlari asoslanmagan, matnni tahrirlagan, ishda o‘z fikr-mulohazalari aks etmagan, g‘azallarning bugungi kundagi ahamiyatiga to‘xtalmagan, zamon bilan bog‘lay olmagan, xulosalari ham juda jo‘n bayon qilingan, imlo, tinish belgilari va husnixat talablariga rioya qilmagan bo‘lsa –	5 – 9 ball
Inshoni yozish mobaynida tavsiyalardan yetarlicha foydalana olmagan, shu sabab fikrlar tartibida chalkashliklar kuzatilgan, reja mavzuni ochib bera olmagan, o‘z qarashlarining ayrimlari asoslangan, ayrimlari asoslanmagan, matnni tahrirlamagan, ishda o‘z fikr-mulohazalari aks etmagan, g‘azallarning bugungi kundagi ahamiyatiga to‘xtalmagan, zamon bilan bog‘lay olmagan, xulosa qismi yozilmagan, imlo, tinish belgilari va husnixat talablariga rioya qilmagan bo‘lsa –	1 – 4 ball